

**FUTBOLCHILIKNING DASTLABKI BOSQICHIDA TEXNIK-TAKTIK
KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING O'RNI VA AHAMIYATI****Karimov Doniyor****(UrIU "Boshlang'ich ta'lim va psixologiya" kafedrası dotsenti)****Sobirov Abdikarim****(UrIU "Boshlang'ich ta'lim va psixologiya" kafedrası stajyor-o'qituvchisi)****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17719114>**

Futbolga endigina qadam qo'yayotgan yosh futbolchilar uchun faqat texnik usullarni yuzaki o'zlashtirishning o'zi kifoya qilmaydi. Ular bu ko'nikmalarni muntazam mashg'ulotlar orqali takomillashtirib borishi, eng soddá harakatlardan boshlab asta-sekin murakkabroq texnikalar sari rivojlanib borishi zarur. Chunki futbol texnikasi bosqichma-bosqich shakllanadigan jarayon bo'lib, u mashqlarni izchil takrorlash, o'yin vaziyatlariga moslashish va individual mahoratni oshirishni talab etadi.

Odatda futbolchi o'yin davomida to'pni atigi 2–3 daqiqa davomida boshqaradi, ayrim hollarda bundan ham kam vaqtga ega bo'ladi. Shu qisqa fursat ichida u 20–25 marta, turli intensivlikda to'pga zarba beradi. Demak, agar yosh futbolchi kundalik mashg'ulotlarda to'p uzatish, qabul qilish, yurgizish va zarba berishning turli shakllarini aniq ijro etishni mashq qilmasa, o'yin jarayonidagi yuqoridagi tezkor sharoitlarda aniqlik, mo'ljal va nazorat hissidan mahrum bo'lib boradi.

Shu nuqtai nazardan, taktik harakatlarni o'yin texnikasi bilan bir paytda o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Bu esa dastlabki mashg'ulotlardan oq yosh futbolchilarda mustaqil fikrlash, to'g'ri mo'ljal olish, muammoli vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish hamda ijodiy faollikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mashq komplekslari shunday tanlanishi kerakki, ularni bajarish jarayonida shug'ullanuvchilar o'yin vaziyatini anglay olsin, to'g'ri taktik yechimni izlasin, o'z harakatlarini baholay olsin va umumlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lsin.

Taktik harakatlarni o'zlashtirishning dastlabki bosqichida futbolchilarda murakkab reaksiyalar tezkorligi, mo'ljal olish qobiliyati, ziyraklik va vaziyatni tez anglash ko'nikmalari asosan jismoniy hamda texnik tayyorgarlik jarayoni davomida rivojlanadi. Bu sifatlarni yanada kuchaytirish uchun mashg'ulotlarga turli qo'shimcha sharoitlar kiritiladi. Masalan:

- mashqlarni bajarishda ovozi va ko'rish mumkin bo'lgan signallardan foydalaniladi, bu esa futbolchilarga to'p bilan yoki to'psiz bajariladigan harakatlarni tez va aniq o'zlashtirishga yordam beradi;

- mashqlarda ishlatiladigan to'plar soni, fishkalar, belgilar, yordamchi jihozlar va ularning mo'ljallari ko'paytiriladi, bunda shug'ullanuvchilarni murakkabroq sharoitda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatiladi;

- harakatlarni asta-sekin murakkablashtirish, mashqul bo'luvchilarning joy almashtirish tezligini oshirish, harakat yo'nalishini o'z vaqtida o'zgartirishga o'rgatish ko'zda tutiladi;

- shartli sheriklarning faol yoki passiv qarshiligidan foydalaniladi, bunda kiritilayotgan murakkabliklar texnik usullar asosida shakllanayotgan jismoniy sifatlarning rivojlanishiga, harakat ko'nikmalarining puxta shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligiga alohida e'tibor beriladi.

Texnikaga oid har qanday mashqni bajarishda dastlab shug'ullanuvchilarning imkoniyatlariga mos bo'lgan taktik topshiriqlar tanlab berilishi lozim. Bu topshiriqlar texnik usullarni o'zlashtirishni qiyinlashtirmasligi, aksincha ularning to'g'ri anglanishi va o'zgaruvchan

o'yin sharoitida oqilona qo'llanishiga yordam berishi kerak. Masalan, yosh futbolchi bir vaqtning o'zida harakat boshlash uchun qulay paytni tanlashi, zarba yo'nalishini aniqlashi, sheriklarining joylashuvi va siljishlarini kuzatib, to'pni optimal yo'nalishda olib yurishga qaror qabul qilishi mumkin.

Keyingi bosqichlarda alohida texnik harakatlarni o'rgatish jarayoni avvaliga raqibsiz mashqlarda, so'ng passiv raqib ishtirokida, nihoyat o'yin xarakteridagi mashqlarda faol raqib bilan davom ettiriladi. Bu jarayon muhim o'rgatuvchi bosqich bo'lib, unda murabbiy futbolchi faoliyatini yo'naltirib boradi. O'rganilgan ko'nikmalarni o'yin sharoitida ko'p marotaba takrorlash orqali mustahkamlash juda zarur.

Yosh futbolchilarga o'quv-mashg'ulotlarda ham, o'rtoqlik uchrashuvlarida ham aniq topshiriqlar berilib, ularning himoyadan hujumga va hujumdan himoyaga o'tish jarayonida to'g'ri joy tanlashi, to'pni o'yinga kiritishda optimal holatni egallashi talab etiladi. Shuningdek, o'yinchilarning raqibdan uzilib chiqishi, jamoadoshining ochiq hududiga chiqishi, o'z o'yinchisini yo'qotgan zahoti darhol raqibni to'g'ri berkitishi kabi taktik elementlar ham muntazam mashq qildirilishi zarur.

Futbolda guruhli taktik harakatlarning negizini ikki, uch va undan ko'proq o'yinchilarning muayyan o'yin usullari asosida o'zaro uyg'unlikda harakat qilishi tashkil etadi. Shuning uchun murabbiylar guruhli o'yinni shakllantirishda futbolchilar orasidagi o'zaro tushunish, o'zaro yordam, to'g'ri joy egallash hamda bir-birining harakati va niyatini oldindan sezish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

Ikki yoki uch o'yinchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni takomillashtirish muntazam ravishda o'yin mashqlari, kichik maydonli o'yinlar va turli o'quv o'yinlari orqali davom ettiriladi. Bunda mashg'ulotlar ketma-ketlik prinsipiga amal qilingan holda tashkil qilinadi: avval hujumchilar son jihatdan ustunlik qiladigan mashqlar bajariladi, keyin hujumchi va himoyachilar soni tenglashtiriladi, nihoyat hujumchilar soni kamroq bo'lgan murakkabroq mashq variantlariga o'tiladi. Bu bosqichli yondashuv futbolchilarda real o'yin vaziyatlariga mos ravishda qaror qabul qilish tezkorligini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'yin mashqlari va o'quv o'yinlariga shunday sharoitlar kiritilishi maqsadga muvofiqki, ular futbolchilarni o'zlari o'rgangan texnik-taktik usullarni amalda qulay vaziyatlarda tez va samarali qo'llashga majbur etsin. Shu tariqa futbolchilar o'yin davomida mustaqil ravishda vaziyatni baholash, to'g'ri mo'ljal olish, optimal harakat variantini tanlash va tezkor qaror qabul qilish malakasini rivojlantiradi.

Mashqlarni bajarish jarayonida murabbiy shug'ullanuvchilarning harakatlarini kuzatib, ularga eng oqilona va maqsadga muvofiq variantni tanlashda yo'naltirib borishi lozim. Ayniqsa, vaziyatni tez anglab, guruhli harakatni to'g'ri davom ettirish uchun kerakli bo'lgan mo'ljal olish tezligi va o'yin tafakkurining o'sishiga katta e'tibor qaratilishi zarur. Bu esa futbolchilarning jamoaviy o'yin madaniyatini shakllantirish va taktik fikrlash darajasini yuksaltirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. D.K.Karimov "O'rta yoshli velosipedchilarning o'ziga xos tayyorgarligi va organizm holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar". Maqola. Educational Research in Universal Sciences 2 (14), 751-755. 2023 yil.

2. D.K.Karimov, A.K.Karimov "Importance of effective tactical systems at football". Ilmiy maqola. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 7 No. 12, 2019 ISSN 2056-5852. 2019 yil.
3. R.R.Zakirova, I.N.Tuxfatullina, D.K.Karimov "Совершенствование методики повышения мастерства велосипедистов - шоссейников на основе аспектов физического развития при занятиях велоспортом". Maqola. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning falsafiy, huquqiy va sotsiologik muammolari konferensiyasi. 2020 yil.
4. D.K.Karimov "O'rta yoshli aholi uchun sog'lomlashtiruvchi yo'nalishdagi mashg'ulotlarni o'tkazish xususiyatlari". Maqola. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(7), 365-369, 2023 yil.
5. D.K.Karimov "Velosipedda yurish orqali o'rta yoshli aholi orasida o'tkaziladigan sog'lomlashtirish mashg'ulotlarining tibbiy-fiziologik asoslari". Maqola. Educational Research in Universal Sciences 2 (15), 94-99. 2023 yil.
6. A.Yu.Atajanov, D.K.Karimov "Harakatli o'yinlarning yosh sportchilar va bolalarni tarbiyalashdagi nazariy ahamiyati". Maqola. Educational Research in Universal Sciences 2 (15), 174-178. 2023 yil.
7. D.K.Karimov "Velosiped sport turi bilan o'rta yoshli aholi uchun sog'lomlashtiruvchi yo'nalishdagi mashg'ulotlarni o'tkazish xususiyatlari". Maqola. Fan sportga jurnali. 79-83 betlar. 2023 yil.